

**Suv xo‘jaligi vazirligi tomonidan qonunchilik hujjatlari ijrosini ta’minlash
bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida
MA’LUMOT**

2025-yil 1-noyabr holatiga

Suv xo‘jaligi sohasida ijro intizomiga qat’iy rioya etilishini ta’minlash yuzasidan mustahkam tizim yaratish, tartib o‘rnatish, temir intizomni joyiga qo‘yish, rahbarlar va xodimlarning dunyoqarashini o‘zgartirish – soha xodimlarining eng muhim hamda asosiy faoliyat mezonlaridir.

“Ijro.gov.uz” tizimidagi Davlat rahbari va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari bilan vazirlikka yuklatilgan topshiriqlar ijrosi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 31-maydagi PQ–5132-sonli qarori asosida tashkil qilingan yagona va uzluksiz “texnologik zanjir” asosida amalga oshirilib, ijro intizomiga rioya etish borasida qat’iy tartib, intizom va tizimli nazorat o‘rnatilib, muayyan natijadorlikka erishildi.

2025-yilning oktabr oyida ijrosi ta’minlanishi lozim bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti topshiriqlarini 25-oktabrga qadar ijrosini ta’minlashga qaratilgan I-II kartoteka topshiriqlar ro‘yxati 5-sentabr kuni, vazir o‘rinbosarlari kesimidagi Kalendar reja hamda “Yo‘l xarita”lar “Ijro.gov.uz” tizimidagi qo‘shimcha va o‘zgarishlarni hisobga olgan holda ishlab chiqilib, 24-sentabr kuni vazir Sh.Xamrayev imzosi bilan eslatma va ijro uchun barcha vazir o‘rinbosarlari, vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo‘lim boshliqlari hamda vazirlik tasarrufidagi respublika tashkilotlari rahbarlariga yetkazilgan.

Hisobot davrida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1 315 ta topshiriq nazoratga olingan va ijrosi ta’minlangan. Shundan, 72 tasi belgilangan muddatidan kechiktirib bajarilgan va 7 ta topshiriqning muddatini uzaytirish yuzasidan Adliya vazirligiga takliflar kiritilgan bo‘lib, Vazirlar Mahkamasining tegishli Rayosat bayonlari bilan ijro muddatlarini uzaytirish ma’qullangan.

Administratsiya rahbarining 42 ta topshirig‘i nazoratga olingan va ijrosi ta’minlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 381 ta topshirig‘i nazoratga olingan va ijrosi ta’minlangan. Shundan, 52 tasi belgilangan muddatidan kechiktirib bajarilgan.

Joriy yilning oktabr oyida ijrosi ta’minlanishi lozim bo‘lgan 146 ta Prezident topshiriqlari, 78 ta Vazirlar Mahkamasi topshiriqlarining barchasisi (100%) to‘liq bajarilgan va o‘rnatilgan tartibda nazoratdan chiqarilgan.

28 ta Administratsiya rahbari topshiriqlarining 26 tasi bajarilgan hamda 2 tasi bajarilmagan. Bugungi kunda ushbu topshiriqlarni nazoratdan olish choralari ko‘rilmoqda.

Shuningdek, 2025-yil yakuniga qadar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 733 ta topshirig‘i nazoratga olingan bo‘lib, shundan, 493 tasida vazirlik asosiy ijrochi va 240 tasida ham ijrochi.

Administratsiya rahbarining 63 ta topshirig‘i nazoratga olingan bo‘lib, shundan, 28 tasida vazirlik asosiy ijrochi va 35 tasida ham ijrochi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 141 ta topshirig'i nazoratga olingan bo'lib, shundan, 86 tasida vazirlik asosiy ijrochi va 55 tasida ham ijrochi hisoblanadi.

Topshiriqlar ijrosini tashkil etish bilan bog'liq masalalar har hafta vazirlik markaziy apparati yig'ilishlari hamda har oy yakuni bilan hay'at yig'ilishida tanqidiy tahlil qilib borilmoqda.

Tashkiliy nazorat va tahlil bo'limi